BANK XIZMATLARI BOZORIDA BANKLARARO RAQOBATNI SHAKLLANTIRISHNING SHARTLARI VA ZARURIYATI

[1]Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich, [2]Azlarova Dilnoza Axrarovna
[1]Fan va texnologiyalar universiteti. "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi o'qituvchisi, [2]Fan va texnologiyalar universiteti. "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi PhD. Dotsent v.b.
https://doi.org/10.5281/zenodo.15389262

Annotatsiya. *Maqolada bank xizmatlari bozorida banklararo raqobatni shakllantirishning asosiy shartlari va uning iqtisodiy zaruriyati tahlil qilinadi. Raqobat muhitini yaratish orqali moliyaviy xizmatlarning sifati va qulayligi oshishi, bank sektorining barqarorligi va ishonchliligi mustahkamlanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada raqobatga to'sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltiriladi. Tahlillar asosida milliy bank tizimini liberallashtirish va raqobatbardosh muhitni rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bank xizmatlari bozori, banklararo raqobat, moliyaviy xizmatlar, raqobat muhiti, bank tizimi, liberallashtirish, iqtisodiy samaradorlik, tartibga solish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные условия и экономическая необходимость формирования межбанковской конкуренции на рынке банковских услуг. Отмечается, что развитие конкурентной среды способствует повышению качества и доступности финансовых услуг, а также укреплению стабильности и надежности банковской системы. Также анализируются факторы, препятствующие конкуренции, и предлагаются пути их устранения. На основе анализа вырабатываются рекомендации по либерализации национальной банковской системы и развитию конкурентной среды.*

Ключевые слова: *рынок банковских услуг, межбанковская конкуренция, финансовые услуги, конкурентная среда, банковская система, либерализация, экономическая эффективность, регулирование.*

Abstract. *This article analyzes the key conditions and economic necessity for fostering interbank competition in the banking services market. It highlights how the development of a competitive environment enhances the quality and accessibility of financial services, while also strengthening the stability and reliability of the banking system. The paper also identifies barriers to competition and suggests measures to overcome them. Based on the analysis, recommendations are made for liberalizing the national banking system and promoting a competitive market environment.*

Keywords: *banking services market, interbank competition, financial services, competitive environment, banking system, liberalization, economic efficiency, regulation.*

Kirish (Введение / Introduction)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi strategik sektor sifatida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, bank xizmatlari bozori iqtisodiyotning turli sohalariga kapital oqimini yo'naltiruvchi vosita sifatida raqobatbardosh bo'lishi zarur. Bugungi globallashuv davrida banklararo raqobatning mavjudligi nafaqat moliyaviy xizmatlarning sifati va narxiga, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligiga ham ta'sir

ko‘rsatadi. Shuning uchun, banklararo raqobatni shakllantirish shartlari va uning zaruriyatini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi moliya bozorining faol ishtirokchilari hisoblangan tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondoshuvlardan foydalanishni talab etmoqda. Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim strategik vazifalaridan biri bir tomondan moliyaviy bazis xisoblanuvchi raqobatbardosh bank tizimini yaratish bo’lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning barcha sohalarida menejmentning samaradorligini ta’minlashdir.

Raqobatning globallashuvi va iqtisodiyotimizning jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi, shu bilan birgalikda davom etayotgan jaxon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish jarayonida bank muassasalarining xizmat ko’rsatish tizimini qaytadan ko’rib chiqishni va ularning raqobat imkoniyatlaridan imkon qadar kengroq foydalanishni taqozo etadi.

O’z navbatida, bank-moliya tizimini liberallashtirish sharoitida O’zbekiston bank tizimini isloh qilish, banklarning barqarorligi va likvidliligi o’sish sur’atlarini ta’min- lashning asosiy sharti sifatida raqobatli bozor sharoitida innovatsion marketing kontseptsiyasini takomillashtirish, banklarning raqobatbar- doshligini, mijozlarning bankka bo’lgan ishonchini oshirish kabilar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Shunga ko’ra, O’zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida «bank tizimini takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini moliyalashtirishda banklarning ishtirokini oshirish»1 muhim yo’nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi esa tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion marketing kontseptsiyasidan foyda- lanishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni va yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»[1], 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to’g’risida»gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270- sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

O’zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank me’yoriy xuquqiy xujjatlari mamlakatimizda nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo’lib xizmat qildi.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar raqobatbardoshligining nazariy va amaliy jixatlari M. Porter, D.I. Barkan, P.S.Zavyalova, V.V.Zrajevskiy[2] , Yu.S. Kudasheva[3] , O.I. Lavrushin, V.S. Vikulov[4] , N.K Moiseeva, A.N. Romanov, R.A.Fatxutdinov[5] va boshqalar ishlarida o'z aksini topgan.

Bank raqobatbardoshligi amaliyot va fan soxasi uchun nisbatan yangi soxa xisoblanadi. Bugungi kunda ushbu soxa buyicha Rossiyalik olimlaridan A.G. Batalov, A.V. Buzdalin, M. Vasin[6] va boshqalar samarali faoliyat olib borishgan. Bank raqobatbardoshligining nazariy va metodologik asoslari ayniqsa L.G.Batrakova, I.A. Nikonova, I.V. Maksimova, M.A. Pomorina, I.O. Spitsin, R.N. Shamgunov ishlarida yaqqol namoyon etilgan. Mamlakatimizda bank raqobati va bank xizmatlari raqobatbardoshligi masalalari va nazariy jixatlari F. I. Mirzaev[7], O.F. Aliqoriev[8] ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy iqtisodchilarimiz tomonidan nobank kredit tashkilotlari faoliyati va ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Ushbu maqola doirasida bank xizmatlari bozorida banklararo raqobatni shakllantirishning shartlari va zaruriyatini o‘rganish uchun quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez usuli: Banklararo raqobatga oid nazariy qarashlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar o‘rganilib, umumlashtirildi. Mavzuga oid mavjud yondashuvlar tahlil qilinib, ular asosida mualliflik xulosalari ishlab chiqildi.
2. Taqqoslash usuli: O‘zbekiston bank tizimidagi holat boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, milliy tizimning afzalliklari va kamchiliklari aniqlab berildi.
3. Empirik yondashuv: Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatiga doir ochiq manbalar (statistika, hisobotlar, qonunchilik hujjatlari) asosida real holat o‘rganildi.
4. Grafik va jadval usullari: Ma'lumotlarning tushunarli tarzda taqdim etilishi uchun infografikalar, jadval va diagrammalardan foydalanildi.
5. Sistemali yondashuv: Bank xizmatlari bozori — murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqilib, uning ichki va tashqi omillari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Xalqaro amaliyotda banklararo raqobatga oid tadqiqotlar orasida World Bank, IMF va OECD hisobotlari alohida o‘rinni egallaydi. Jumladan, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan

[2] Zrajevskiy V.V. Teoreticheskie i metodologicheskie osnovы konkurentosposobnosti bankovskoy sistemы Rossiyskoy Federatsii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. –Sankt Peterburg- 2008

[3] Kudasheva Yu.S. Sovershenstvovanie metodiki otsenki konkurentosposobnosti kommercheskogo banka Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. –Stavrapol- 2007.

[4] Vikulov V.S. Marketing bankovskix produktov na osnove segmentatsionnыx modeley // Marketing v Rossii i za rubejom. – 2005. - № 1. – s. 131-137. // http://www.dis.ru/market/arhiv/2015/1/3.html

[5] Fatxutdinov, R.A. Konkurentosposobnost: ekonomika, strategiya, upravlenie / R.A. Fatxutdinov. – M.: INFRA-M, 2017

[6] Vasin M. Banki rabotayut na imidj. Otsenka imidjevыx iskajeniy pri analize kreditosposobnosti banka. - Opublikovano v nomere: "Upravlenie kompaniey" № 2 / 2004 // http://www.marketing.spb.ru/lib-comm/pr/banks_image.htm

[7] F.I. Mirzaev. “O’zbekistonda b anklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari” Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2010 y

[8] Alikoriev O.F «Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yunalishlari” iqt. fan. nomz dis. avtoref. - Toshkent, 2011 y. - 28 b

“Global Financial Development Report”da raqobatning moliyaviy inklyuzivlik va xizmatlar sifati bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Bank xizmatlari bozorida samarali raqobat muhitini shakllantirish bugungi global iqtisodiy jarayonlarda milliy bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda moliyaviy xizmatlar sifati pasayadi, narxlar sun’iy oshadi va innovatsion yondashuvlar sustlashadi. Shuning uchun banklararo raqobatni shakllantirish uchun quyidagi shartlar muhim ahamiyatga ega: litsenziyalash tizimining shaffofligi, banklar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratilishi, markaziy bank tomonidan adolatli nazorat va monitoring mexanizmlarining joriy etilishi hamda xususiy kapitalning faol ishtirokiga keng yo‘l ochilishi.

Bozor munosabatlari sub’ektlari o‘zining iqtisodiy pozisiyalarini kuchaytirish va foyda ortidan quvishga intilgan holda raqobatning chegaralovchi «kishan»laridan xalos bo‘lishga harakat qiladilar.

Bank xizmatlari bozorida raqobatning rivojlanishiga doir uchta asosiy muammoni ajratib ko‘rsatish mumkin:

-mamlakat moliya bozorida xalqaro tashkilotlar tomonidan global raqobatning kuchayishi;

-mamlakat birlashmalari, sub’ektlari va davlat kapitali ishtirokidagi banklar rolining ustunligi;

-biznesda ma’muriy va iqtisodiy xarajatlarning pasayishi hisobiga bank xizmatlari mahalliy sektori raqobatbardoshligining ortishi.

Bank raqobatining mohiyati bank xizmatlarining bozordagi eng muhim tavsifnomasi – raqobatbardoshligida yorqin aks etadi.

Moliya bozoridagi raqobat bozor raqobatining turlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bank tizimidagi raqobat iqtisodiyotning boshqa sektorlariga qaraganda ancha murakkab. Uning o‘ziga xosligi ko‘p jihatlar bilan belgilanadi[9]

Tadqiqot predmeti haqidagi tasavvurlar va raqobatbardoshlik haqidagi mashhur ta’riflar tahlili bu tushuncha mohiyatini ochib berish va uning boshqa iqtisodiy toifalar orasidagi o‘rnini aniqlash uchun shak-shubhasiz muhim bo‘lgan qator jihatlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

-xizmatning raqobatbardoshligi, buning iste’molchi uchun jalb etuvchanlik o‘lchamidir;

- xizmatning jalb etuvchanligi yig‘ilgan xilma-xil (qarama-qarshi) talablarni qondirish darajasi bilan belgilanadi;

-bildirilgan talablar tarkibi, ularning ustuvorligi xizmatning turiga ham, uning iste’molchisi turiga ham bog‘liq bo‘ladi;

- raqobatbardoshlik iqtisodiy toifa sifatida muayyan bozorga va muayyan o‘xshash tovarga nisbatan ko‘rib chiqiladi;

- raqobatbardoshlikka dinamik xarakter xos – uni faqat muayyan vaqtga nisbatan, bozor kon’yunkturasining o‘zgarishlarini hisobga olgan holdagina ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq;

-raqobatbardoshlik muammosi faqat muvozanatsiz holatda turgan nostasionar, nodefisit bozorga tegishli;

[9] A.A.Azlarova, M.M. Abduraxmanova “Bank marketingi va menejmenti”: (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2019 y. -201 b

- raqobatbardoshlik darajasi ko‘rib chiqilayotgan xizmat hayotiylik davrining qaysi bosqichida ekanligiga bog‘liq;

- bozorda faqat ma’lum bir ulushga ega bo‘lgan xizmatning raqobatbardoshligi haqida gapirish o‘rinli.

Bank raqobat sub’ektlari nafaqat banklar, balki bank bozorida ishtirok etuvchi barcha boshqa moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan tashkilotlardir.

Raqobat- raqobatchilarni rag‘batlantiruvchi omil:

- bank xizmatlari turlarini kengaytirish;

- bank mahsulotlari sifatini oshirish - bu mahsulotlar uchun narxlarni tartibga solish.

Raqobat banklarni yanada samarali ishlash usullariga o‘tishga undaydi. Bank raqobatining mohiyati, bozorda bank xizmatlarining eng muhim xususiyati - uning raqobatbardoshligi bilan ifodalanadi[10].


Tijorat banki raqobatbardoshligi uning raqobatbardosh xizmatlar ishlab chiqish va sotish yo‘li bilan muayyan bozor (sotuv mintaqasi) talabiga muvaffaqiyat bilan javob qaytarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Banklararo raqobat deb banklararo bozorda resurslarni jalb qilishdagi o‘zaro munosabatlar va barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan raqobatga aytiladi

Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat bir necha darajalardan iborat bo‘ladi. Jumladan:

1. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat (universal va ixtisoslashgan banklar).

2. Banklarning boshqa moliya- kredit muassasalari bilan o‘zaro raqobatini tushunamiz. Bunga banklarning investisiya fondlari, sug‘urta kompagniyalari, brokerlik kompaniyalari va boshqalar bilan bo‘ladigan raqobatini tushunamiz.

3. Tijorat banklarning uchinchi darajali raqobatida savdo uylari, telekommunikasion kompaniyalari, posta aloqasi va boshqalarni kiritish mumkin.



1-rasm. Banklararo bozorning monopollashuvi jihatdan banklararo raqobat tuzilishi.

Banklararo bozorning monopollashuvi jihatdan banklararo raqobat takomillashgan va takomillashmagan raqobatga bo ‘linadi.

Takomillashgan raqobatda turli va bir nechta banklar tomonida xizmatlar taklif qilinadi va ular o ‘rtasida raqobat yuzaga keladi. Takomillashgan raqobatning asosiy jihatlari quyidagilar: - ishtirokchilar soni ko‘p bo‘ladi; - raqobat baholi xarakterga ega va reklama va boshqa

[10] Лутошкина Н.К. «Банковская конкуренция и конкурентоспособност: сущност, понятие, специфика.» // Финансі и кредит. №8, 2011.

ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. - yangi tashkil etilgan banklar bunday bozorarga kirishi va mavjudlari erkin tarzda chiqishi mumkin.

Takomillashmagan raqobatda bir yoki bir nechta sub’ektlar faoliyati natijasida bozorga ta’sir o‘tkazish orqali, ya’ni teng bo‘lmagan sharoitda raqobatning bo‘lishidir. Takomillashmagan raqobatning 3 ta asosiy shakli keltirib o‘tiladi:

- Monopolistik raqobat;
- Oligopoliya;
- Sof monopol raqobat.

Tijorat banklari raqobatbardoshligini marketing konsepsiyasiga tayangan holda oshirish nuqtai nazaridan bank raqobatini uning xizmatlari bozorida oshirish mumkin.

Raqobat — mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxona)lar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurash. Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha sub’yektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni etkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, er, ishchi kuchi) yuqori nd/shshrda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurelarni etkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Bank xizmatlari bozorida banklararo raqobatni shakllantirish bugungi kunda O‘zbekiston moliyaviy tizimini rivojlantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Raqobat muhiti mavjud bo‘lgan sharoitda banklar mijozlarga yanada sifatli, innovatsion va qulay moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi hamda aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, banklararo raqobatni rivojlantirish uchun:

- tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan ochiq va adolatli raqobat muhitini yaratish;
- yangi banklarning bozorga kirishini rag‘batlantirish;
- moliyaviy texnologiyalar va raqamli xizmatlar joriy etilishini qo‘llab-quvvatlash;
- banklar faoliyatining shaffofligini ta'minlash zarur.

Shu bois, banklararo raqobat faqatgina moliyaviy sektorni emas, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham faol harakatga keltiruvchi omil sifatida ko‘rilmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Негров В.П., Радюкова Я.Ю. «Понятие, сущност и особенности банковской конкуренсии» // Сотсиалноекономические явления и протсесси, 2015, №4
2. A.A.Azlarova, M.M. Abduraxmanova “Bank marketingi va menejmenti”: (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2019 y. -201 b
3. Лутошкина Н.К. «Банковская конкуренция и конкурентоспособност: сущност, понятие, специфика.» // Финанси и кредит. №8, 2011.
4. Zrajevskiy V.V. Teoreticheskie i metodologicheskie osnovы konkurentosposobnosti bankovskoy sistemы Rossiyskoy Federatsii. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. –Sankt Peterburg- 2008

5. Kudasheva Yu.S. Sovershenstvovanie metodiki otsenki konkurentosposobnosti kommercheskogo banka Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. –Stavrapol- 2007.
6. Vikulov V.S. Marketing bankovskix produktov na osnove segmentatsionnыx modeley // Marketing v Rossii i za rubejom. – 2005. - № 1. – s. 131-137. // http://www.dis.ru/market/arhiv/2015/1/3.html
7. Fatxutdinov, R.A. Konkurentosposobnost: ekonomika, strategiya, upravlenie / R.A. Fatxutdinov. – M.: INFRA-M, 2017
8. Vasin M. Banki rabotayut na imidj. Otsenka imidjevыx iskajeniy pri analize kreditosposobnosti banka. - Opublikovano v nomere: "Upravlenie kompaniey" № 2 / 2004 // http://www.marketing.spb.ru/lib-comm/pr/banks_image.htm
9. F.I. Mirzaev. “O’zbekistonda b anklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari” Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2010 y
10. Alikoriev O.F «Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yunalishlari” iqt. fan. nomz dis. avtoref. - Toshkent, 2011 y. - 28 b